



## IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O'QUVCHILARINI MAQOM ASHULALARI VOSITASIDA ESTETIK TARBIYALASH

*Yaxyayeva Shaxnoza Sharopovna*

*Buxoro ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internati o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** maqolada musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarini maqom ashulalari vositasida estetik tarbiyalash usullarining mohiyati haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** maqom, musiqiy meros, estetika, musiqiy namunalar, maqom san'ati, axloqiy-estetik tarbiya.

Musiqa tarbiya insonni go`zallikka yetaklovchi bir vosita bo`lib, u insonning estetik va emotsiyonal xususiyatlarini shakllantiradi. Haqiqiy musiqa asarlari zamonning estetik-axloqiy va siyosiy g`oyalarini umumlashtiradi.

Inson hayotini musiqa san'atisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. San'at kishilarga faqatgina ma'naviy ozuqa beribgina qolmasdan, jismoniy kamolotga erishuviga ham muhim o`rin o`ynaydi. Musiqa san'atining axloqiy-estetik tarbiyadagi rolini to`g`ri his etib, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini aslo unutmaslik zarur. Musiqiy go`zallik insonning ma'naviy qiyofasi shakllanishida muhim omildir.

Musiqa go`zallikka intilish, estetik ehtiyoj tug`ma xislat emas. U insonda mehnat va atrof-tevarakdagi olamni ta'sirida paydo bo`lgan. Tashqi olamni o`zgartirish bilan insonning o`zi ham o`zgarib bordi, bunda faqat u jismoniy jihatdangina taraqqiy qilib qolmay, balki ma'naviy jihatdan ham taraqqiy etdi. Insonning ma'naviy qobiliyati va avvalo, estetik hissi asta-sekin taraqqiy etib, tarbiyalanib bordi.

Musiqa san'ati hayotni bilish va odamlarni tarbiyalashning qudratli vositasidir. Ammo uning bilish va tarbiyalashdagi xizmat darajasi kishiga estetik, badiiy jihatdan ta'sir etish kuchiga bog`liqdir.

Musiqa san'ati kishi faoliyatining muayyan bir turi bo`lib, uning vazifasi jamiyatga estetik xizmat ko`rsatishdir. Shu ma'noda uning o`rnini hech bir narsa bosa olmaydi. Musiqa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida faol sur'atda o`rin oladi. Shunday qilib, voqelikka bo`lgan estetik munosabat bastakorlar tomonidan yaratilgan musiqa asarlarida ham, mehnatga, maishiy hayotga va odamlar munosabatiga olib kiriladigan badiiy asoslarda ham ifodalanadi.



Yoshlarni go'zallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqealarni to'g'ri tushunish, olivjanob his-tuyg'ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. Yoshlarda go'zallikni idrok etishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish, kishilarning xursandchiliklariga sherik boiish, qayg'usini birga baham ko'rish kabi xususiyatlar shakllanriladi.

Ayrim yoshlar yasama, sun'iy «go'zallik» bilan o'zlarini badbashara qilib qo'yadilar, ular haqiqiy go'zallik yuzning tabiiy latofatida, sodda va xushbichim kiyimda ekanini unutib qo'yadilar.

Kishining tashqi go'zalligi kiyim ranglarining bir-biriga mos kelishida, tabiiylik va soddalikda yaqqol ko'rindi. Ko'zga tashlanmagan holda husniga tabiiy latofat va nafosat beradigan, ayrim kamchiliklarini bilintirmay ketadigan ust-bosh kiygan inson ko'rkm va go'zaldir.

Insonning did-farosati kiyim-boshida, xatti-harakatlarida, o'zini tuta bilishida ko'zga tashlanadi. Samimiyl, oq ko'ngil. o'ziga talabchan qilib tarbiyalangan inson tashqi ko'rinishida sun'iylik, qalbakilikni ko'rsatuvchi biron-bir be'manilikka yoi qo'ymaydigan tarzda kiyinishga, o'zini shunga munosib tutishga harakat qiladi. Didli-farosatli kishi hamisha ana shu qiyofani saqlab qoladi. Tashqi qiyofaga e'tibor berish ichki. m a'naviy go'zallikning ifodasi hisoblanadi.

Estetik taraqqiyot shaxsning estetik ongi va estetik faoliyatining shakllanishi va takomillashuvida uzoq vaqt ni talab etadigan jarayondir. Shaxsning estetik taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy va estetik tajribani ijodiy o'zlashtirish natijasida yuzaga keladi. Bu har xil yo'llar va shakllar orqali amalga oshiriladi. Shaxsning estetik jihatdan rivojlanishida ta 'lim va tarbiya hal etuvchi rol o'ynaydi.

Xalq pedagogikasi estetikaning «go'zallik-hayot demakdir» degan qoidasidan kelib chiqib. o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotdagi, mehnatdagi, turmushdagi, kishilar munosabatidagi go'zallikda ishtirok etishini, uning hayotni, san'atni idrok eta bilish qobiliyatini shakllantirishni o'zining bosh vazifasi deb hisoblaydi.

Maqom san'ati - yosh avlodning orzu-armonlari, iymonu-e'tiqodini, toza ruhi va xotirasini, ezgu niyatlarini o'zida mujassamlashtirgan qadimiy an'analarini ifodalovchi



tarbiyaviy vositadir. Ular milliy ma’naviy tarbiyada qudratli qurol, yoshlarni ma’naviy jipslikka birlashtiruvchi omil hisoblanib, o‘zbek millatining ma’naviy dunyosini ifoda etadi.

Har bir millat, elat va etnik guruhning o‘ziga xos udumlari, urf-odatlari, an’ana va marosimlari bor. U avloddan avlodga, davrdan davrga meros bo‘lib o‘tadigan, muayyan ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilingan xulq-atvor usullaridandir. Bu boy merosimiz o‘zining mazmundorligi, tarbiyaviyligi, umrboqiyligi bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Hayot kishilarda ezgu niyat, maqsadga intilish, e’tiqod va barcha orzu-armonlarni, toza ruh va xotirani, jamiyatning yaxshi niyatlarini, qadimiyligi an’analarni o‘zida jamuljam etgani uchun ham kishilar hayotiga singib ketadi.

O‘zbek xalqining musiqa merosi juda boy va qadimiyligi tarixga ega. Uning ajoyib an’analari hozirgi kunda ham o‘z badiiy va estetik qiymatini saqlab kelmoqda. Bu an’analalar zamonaliv o‘zbek musiqa madaniyatining ajralmas qismini tashkil qiladi.

Hozirda estetik tarbiyaning ko‘lami tobora kengaymoqda. Shunga ko‘ra, u o‘z oldiga talaygina muhim vazifalarni qo‘ygan. Bular kishilarda san’at asarlari, badiiy ijomalarini nafaqat faol o‘zlashtirish balki, ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish, jamiyat a’zolarining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qildirish va ulardan foydalana bilishga ishonch tuyg’usini uyg’otish, tabiat hamda jamiyat ijtimoiy jarayonlariga sof tuyg’u bilan munosabatda bo‘lishga va ularni ravnaq toptirish yo‘lida astoydil faoliyat olib borish ko‘nikmalarini hosil qilish, o‘tmish ma’naviy merosimizga hurmat hissini uyg’otish, milliy g’urur, milliy iftixon tuyg’ularini shakllantirish uchun zamin yaratish, ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirib jahonga yuz tutish va ularni millat manfaatlari uchun naf keltiradigan tomonlarini targ’ib qilishga undashdir.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarda olib borilgan maqomchilik va maqon san’atini rivojlantirish borasidagi ishlarning asosini “Sharq taronalari” festevali tashkil etadi. Xalqaro miqiyosda o‘tkaziladigan mazkur festival yurtimizda maqom san’tiga e’tiborni yanada kuchaytirish lozimligini ko‘rsatdi.

Har bir xalqning o‘z tarixi, e’tiqodi va mentaliteti mavjud. Shu bois san’ati ham o‘ziga xos bo‘lmish tabiiy. Ayniqsa har bir millatning o‘z musiqa san’ati borki qulog’imizga chalinishi bilan qaysi xalqqa mansub ekanligini darhon anglaymiz, his qilamiz. Milliy



navolarda bir-birini takrorlaydigan nozik nolalar borki, beixtiyor hayratga tushamiz. O'zbek xalqining ham betakror san'ati o'lmas navolari turfa xildir. Ulug' mutafakkir, jahon progressiv madaniyati va adabiyotning nuroniyligini siyomosi bo'lmish Alisher Navoiy bobomizning «Sarvi gulru kelmadi», «Istadir», «Qoshli», «Qaro ko'zum» g'azallari bilan kuylanadigan qo'shiqlarimizni olib tahlil qilib ko'rsak, ularning nasriy bayoni, g'oyaviy mazmuni, musiqiyligi, ohang tuzilmalarida o'zbek klassik musiqasiga qoidalar: daromad, avj, chuqur avj, har bir unli tovushlarda talqin qilinadigan murakkab, yoqimli qochirimlar so'zlarimiz isbotidir.

Milliy ma'naviyat va ma'rifat yangidan ko'z ochayotgan bir davrda mafkuramizning rivojlantirishda xalqimizning umrboqiy san'at tarixini keng yoritish, musiqa merosimizni o'rganish va san'atsevar xalqimizga yetkazish muhim o'rinni tutadi.

Ayniqsa bu borada ustozdan – shogirdga o'tib kelgan xalq an'anaviy ijrochilik maktabi asosiy manba sanaladi. Biz o'tmishda yashab ijod etgan buyuk allomalarimizning tarixiy asarlarida murojaat qilish bilan birga bobokalon san'atkorlarimiz meros qilib qoldirib ketgan durdonalarni chuqur o'rganib bormog'imiz lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Hamidov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. -T.: O'qituvchi, 1996. -174 b.
2. O'zbek xalq musiqasi. Buxoro maqomlari. To'plovchi va notaga oluvchi Yu.Rajabiy. III-tom. -T.: 1989. - 864 b.
3. Fayzulina S.X. O'quvchi yoshlarning estetik tarbiyasi.- T.: O'qituvchi, 1978.49b.
4. Культура и искусство Х.Р. Хасанов "Вестник науки и образования", 2020г, стр: 119-122